

ABU SA'D ABDULKARIM AS-SAMONIYNING HAYOTI VA UNING “NASABSHUNOSLIK”GA DOIR ILMIY ASARLARI TAHLILI

Abduraximov Abdullo Abdulxay o'g'li

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
“Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy
tadqiqot usullari mutaxassisligi 1-bosqich
magistranti.

Tel. +998943024512

Tarixni anglash o'zlikni anglash demakdir. Shu asnoda bugungi kunda tarixni o'rganishga, ayniqsa o'rta asrlarda yurtimiz tarixini, geografiyasini va Islom madaniyatini shakillanib borish jarayonini o'rganishga bo'lgan qiziqish kundan kunga ortib bormoqda va ko'plab tadqiqotchilar o'rta asrlar tarixini shu davrda yaratilgan qimmatli asarlardan o'rganib, o'z tadqiqotlarida katta yutuqlarga erishmoqdalar. Ilk o'rta asrlarda yshab ijod qilgan ko'plab ulamolar borki, ularning ilmiy asarlari zamonlar oshsa ham hali-hanuz jamoatchilik e'tiboridan qolgani yo'q. Ular orasida Abu Sa'd Abdulkarim as-Samoniyy o'zining tarix, nasabshunoslik, hadis ilmi va tarixiy geografiyaga oid asarlari bilan ajralib turadi. As-Samoniyy butun Islom xalifaligi hududini ilm izlash maqsadida kezib chiqdi. Bu safari davomida ko'plab mashhur shaharlar hamda olisda joylashgan qishloqlarga ham yetib borishga harakat qiladi. Shunday kishilar borki, ularning tarjimai holi faqat uning asarlarida uchraydi. Shu sababdan ham Abu Sa'd As-Samoniyy ilmiy merosi bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Abu Sa'd As-Samoniyy asarlari nasabshunoslik va tarixiy-biografik tadqiqotlar uchun muhim manba hisoblanadi va bundan tashqari Hadis ilmi va roviylarni o'rganishda bebaho ilmiy manbadir. Uning qimmatli asarlarni o'rganish shaharlar geografiyasi va madaniy tarixni aniqlashda katta ahamiyatga ega. Shu sababli, as-Samoniyy merosini chuqur o'rganish islom tarixi va madaniyatini yoritishda dolzarb hisoblanadi.

Abu Sa'd Abdulkarim as-Samoniyy (to'liq ismi Abu Sa'd Abdulkarim ibn Muhammad ibn Mansur at-Tamimiy as-Samoniyy al-Marvaziy al-Xofiz). Islom madaniyati va ilmining o'choqlaridan bo'lmish mashhur Marv shahrida hijriy 506-(milodiy 1113-yil)yilda dunyoga keladi. Samoniylar sulolasida ko'plab ilmli kishilar yetishib chiqqan bo'lib bunday ilmiy muhit yosh Abdulkarimning kelgusidagi faoliyatiga ham o'z tasirini o'tkazdi. Bu oila kelib chiqishi esa Tamim qabilasiga borib taqalgan. Tamim qabilasining bir tarmog'i hisoblangan Samoniylardan bo'lganlari uchun bu zotga as-Samoniyy nisbati berilgan¹. Ma'lumotlarga qaraganda, XII asarda Marvda o'nga yaqin katta kutubxona mavjud bo'lib, shulardan ikkitasiga As-Samoniylar oilasi egalik qilishgan. Ushba kutubxonalarga ko'plab islom shaharlaridan tolibi ilimlar ilim olish maqsadida tashrif buyurishgan.

Otalarining ismi imom Abu Bakr Muhammad ibn Mansur ibn Muhammad ibn Abduljabbor as-Samoniyy juda taqvoli va ilimli kishi bo'lganligi takidlanadi. U hadis ilmni chuqur o'rganish maqsadida Isfahonga safar qilib u yerda ko'plab olimlar va roviylardan saboq oladi va taxminan 40 yoshdan oshganda vafot etgan. Onalari Fotima binti Hasan ibn Ahmad az-Zandxoniy isimli ayol bo'lib o'sh davrdagi Marv shaxri rahbarining qizi bo'lganligi va 533-hijriy yilda Saraxsda vafot etganligi qayd etiladi. ``Bundan tashqari Abdulkarimning amakilari ham juda ilimli kishilar bo'lib otasi vafotidan so'ng unga homiylik va ustozlik qilishgan.

As-Samoniylar oilasi butun Marv shahrida mashhur edi va bu oila haqida ko'plab ulamolar ijobiy fikrlar qoldirishgan. Jumladan Muhaddis Mahmud al-Havoriy *“Bu oilaning ajdodlari ham, avlodlari ham olimlarga namuna, fazilatli larga o'rnak bo'lishgan. Ular o'z zamonalarining peshvolari, ilmiy yetakchilari bo'lishgan. Ularning yetukligi faqat martaba yoki jasorat bilan emas, balki bilim va fiqh bilan tasdiqlangan.”*

Ibn al-Asir (hijriy 555-630/1160-1233y) esa o'zining “Al-Lubab” asarida quyidagi mazmundagi tarifni keltiradi: *“Bu sulola ilm ahli edi. Ular din va dunyo*

¹ Abdulkarim as-Samoniyy. Al-Ansob. Tar. A.R.Buxoriy, K.Rahimov. “Hilol-Nashr” Toshkent-2017. 4-b.

yetakchiligini birgalikda olib borishgan va bu maqomga boshqa hech kim yetisha olmagan.”

Abdulkarim as-Samoniyy yoshlik kezaridanoq ilim olishga qattiq kirishgan va bunda oilaviy muhitning ham o‘rni beqiyos edi. Taxminan uch yasharligida otasi Muhammad ibn Mansur bilan islom shaharlaridan bo‘lmish Nishopurga kelishadi ammo oradan bir yil o‘tar o‘tmas Abdulakarimning otasi vafot etadi. Endi yosh Abdulkarimga ta’lim va tarbiya berish amakilarining zimmasiga tushadi. Ulardan ancha vaqt davomida diniy bilimlarni chuqur o‘zlashtiradi. Keyinchalik mashhur shayxlar va islom ulamolaridan saboq olish maqsadida turli mamlakatlarga sayohat qiladi va ushbu sayohati davomida ko‘plab olimlar va fozil kishilarning nasablari va yashash manzillarini qayt etib boradi. Zamondoshlarining uning ilim o‘rgangan shayxlari soni yetti mingga yaqin bo‘lganligini takidlashgan. Umrining so‘ngi damlarini o‘z yurtida o‘tkazishni istab Marvga qaytadi va hijriy 562-yilda 56 yoshida rihlat qiladi va Marv qabristoniga dafn etiladi.

“Nasab” arabcha so‘z bo‘lib, kelib chiqish, nasil-nasab, sulola, ajdod manolarini anglatadi². Islom dini an‘analariga ko‘ra, inson o‘z nasabini va kelib chiqishini yaxshi bilishi lozim bo‘lgan. Ko‘plab rivojlangan o‘rta asr ulamolari o‘zlari va ta’lim olgan ustozlarining nasablarini va tug‘ilib o‘sgan shaharlarini yozib qoldirgan. Shu tariqa ilk nasabnoma asarlar paydo bo‘lgan. As-Samoniyy ham o‘z davrining mashhur allomalaridan bo‘lib, tarix va hadis ilmuni yaxshi o‘zlashtiradi va ko‘plab ishonchli ma’lumotlar to‘playdi. Uning qalamiga mansub fiqh ilmiga, hadisshunoslik, filalogiya, arab tili gramatikasa, tarix va geografiya sohasiga doir 60 ga yaqin asar yozgan. Ammo asarlarining katta qismi bizgacha yetib kelmagan. O‘z asarlarida 150 dan ortiq movarounnahrlik olimlar haqida ma’lumot beradi. Ushbu asarlar ishonchliligi va ko‘plab ma’lumotlarni o‘zida mujassamlashtirganligi uchun boshqalaridan ajralib turadi. Masalan, o‘z davrining taniqli ulamolaridan biri tarixchi Ibn Xallikon³ u haqida

² Abdulkarim as-Samoniyy, Al-Ansob. Tar. A.R.Buxoriy, K.Rahimov. “Hilol-Nashr” Toshkent-2017. 4-5-b

³ Ibn Xallikon (milodiy 1211-1282)- arab tarixchisi. 1261-yilda Damashqqa Qozikalon qilib tayinlangan

quyidagicha tarif qoldirgan: *"U o'z davrining eng yetuk olimlaridan bo'lib, islom ilmining turli sohalarida bebaho asarlar qoldirgan"*.

As-Samoniyning **"Kitob al-ansab"** ("Nasabnomalar kitobi") asari O'rta Osiyo tarixiga oid eng qimmatli va muhim yozma manbalardan biridir. Ispaniyadan Xitoygacha bo'lgan o'rta asr musulmon olamiga oid ko'plab ma'lumotlar, tarixiy geografiya va topografiya, toponomika, arxitektura va qurilishga oid ma'lumotlar va shuningdek, tilshunos va adabiyotshunoslar, muhaddislar, huquqshunoslar, Qur'on hofizlari va so'fiylar hayoti va faoliyatiga doir qimmatli ma'lumotlarni ushbu asardan topish mumkin.

"Nasabnoma" kitobidan ayrim nusxalar ko'chirilgan bo'lib, bugungi kunda ular dunyoning turli mamlakatlari qo'lyozmalar fondi va muzeylaridan joy olgan. Jumladan, "al-Ansob" kitobidan taniqli o'rta asr xattotlaridan bo'lmish Abdulmajid ibn Muhammad al-Karmoniy al-Abbosiy 1510-yilda (hijriy 915) kitobdan nusxa ko'chirilgan bo'lib, ushbu nusxa bugungi kunda Istanbulda mashhur bo'lgan Ko'pruli kutubxonasida saqlanmoqda. Bundan tashqari, Rossiya FA Sharqshunoslik instituti Sank-Peterburg bo'limi qo'lyozmalar fondida OR-361 belgisi ostida saqlanayotgan 470 varaqdan iborat nusxasi ham bor⁴. Yana bir qancha nusxalar mavjud bo'lib, bu nusxalar tarjima qilinib, ular asosida ilmiy ishlar olib borildi.

Britaniya muzeyi kutubxonasida saqlanayotgan to'liq bo'lmagan qo'lyozma birinchi marta 1912-yilda Devid Samuel Margolius tomonidan faksimil shaklida nashr etilgan. 1960-1962-yillarda Usmoniya universiteti olimlari tomonidan qo'lyozmaning tanqidiy nashri chop etildi. Keyinchalik, yani 1976-yilga kelib, Damashqda qayta nashr etiladi. 1980-1981-yillarda Bayrutda "Kitob al-ansab"ning yangi tanqidiy nashri 12 jilddan iborat bo'lib, unda bizgacha yetib kelgan 6 ta qo'lyozmaning barchasidan foydalanilgan. Nashrga tayyorlov ishlari Abdurrahmon ibn Yahyo al-Muallimiy al-Yamaniy boshchiligidagi bir guruh olimlar tomonidan amalga oshirilgan.

⁴ Abdulkarim as-Samoniyy. Al-Ansob. Tar. A.R.Buxoriy, K.Rahimov. "Hilol-Nashr" Toshkent-2017. 6-b.

Yurtimizda ham “Nasabnoma” asari asosida olim Shamsiddin Kamoliddinov “*Китаб ал-ансаб*” *Абу Саъда Абд ал-Карима ибн Мухаммада ас-Самъани как источник по истории и истории культуры Средней Азии.* (Т., “Fan”, 1993) nomli monografiyani chop ettirdi. Takidlash lozimki, bu monografiya Abu Sa’d Abdulkarim as-Samoniyy asarlari asosida yaratilgan ilk ishlardan biri hisoblanadi. 2017-yilda (2-nashir) al-Ansob kitobini Abdulg’afur Buxoriy va Komiljon Raximov ilk bor o‘zbek tiliga tarjima qilishdi (tarjima qilishda 1988-yilda Bayrutda chop etilgan to‘plamdan foydalanilgan). Kitob “Nasabnoma” nomi bilan “Hilol-Nashir” nashriyotida kitob holida chop etildi. Ushbu kitob o‘z ichiga Movarounnahr hududida yashab ijod qilgan olimlarni jamlagan va kitob so‘ngida ayrim izohli lug‘atlar beriladi. Kitob qattiq muqovali va 336 betdan iborat.

Muallif qalamiga mansub ikkinchi asar “Mujam al-Shuyux” hisoblanadi. Asarning to‘liq nomi “Al-muntaxab min mujam al-shuyux” (*المنتخب من معجم الشيوخ*) (“Allomalar jamoasidan saralari”) bo‘lib, ilmiy doirada Mujam al-Shuyux nomi bilan tanilgan. Ushbu asar “al-Ansob” kitobining mantiqiy davomi bo‘lib, unga yangi ma’lumotlar qo‘shilgan va asar to‘ldirilgan. Asarda Markaziy Osiyo shaharlari va xalqlarining tarixi, madaniyati, tarixiy geografiyasi va bu hududlarda yashab o‘tgan o‘rta asr tarixchilari, adiblari, mutafakkirlari va fiqhshunoslari hamda hadisshunoslari haqida ma’lumotlar berilgan.

Abdulkarim as-Samoniyyning “Al-Muntaxab min Mujam al-Shuyux” asarining noyob nusxasi Istanbuldagi Sulton Ahmad III kutubxonasida 2953-raqam ostida saqlanadi. Asarning bu nusxasi eng qimmatli nusxalardan biri bo‘lib, 647/1249-50 yilda xattot Ibodulloh Abu Bakr ibn Abdulko‘fiy ibn Usmon al-Horisiy tomonidan nasx xatida ko‘chirilgan. Ushbu nusxa 299 sahifadan iborat bo‘lib, har bir sahifa 21 qator yozuvdan tashkil topgan⁵.

Asarda o‘rta asrlar Sharq olamiga mansub 1446 nafar alloma haqida ma’lumot keltirilgan bo‘lib, ularning 600 dan ortig‘i O‘rta Osiyo hududiga mansub. Asarda

⁵АЛИМОВ З.И. АБУ САЪАД АС-САМЪОНИЙНИНГ “АЛ-МУНТАХАБ МИН МУЪЖАМ АШШУЙУХ” АСАРИ ВА УНДАГИ ЎРТА ОСИЁ АЛЛОМАЛАРИ ТАВСИФИ. 2-б.

allomalar va ularning ilmiy faoliyati haqidagi ma'lumotlar bilan birga, ular yashagan shahar yoki qishloqning joylashuvi, ushbu hudud madaniyati va tarixi borasida ham qimmatli fikr va mulohazalar qayd etilgan.

1996-yilda taniqli manbashunos olim Muvaffaq ibn Abdulloh ibn Abdulqodir boshchiligida bir guruh arab olimlari "Al-Muntaxab min Mujam Al-Shuyux" asarini Riyod shahrida 4 qisimdan iborat tanqidiy nashri chop etilgan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Abu Sa'd Abdulkarim as-Sam'oniyning nasabshunoslik va biografik asarlari o'rta asrlar islom dunyosining ijtimoiy, ilmiy va madaniy muhitini o'rganish uchun muhim manba hisoblanadi. Xususan, uning "Al-Muntakhab min Mu'jam ash-Shuyukh" kabi asarlari Movarounnahr ulamolarining ilmiy faoliyati, ularning ilmiy-ma'rifiy merosi va isnod tizimidagi o'rmini aniqlashda katta ahamiyatga ega.

As-Sam'aniyning genealogik yondashuvi orqali ulamolarning nasl-nasabi, ularning ilmiy silsilalari va o'sha davrning madaniy aloqalarini tahlil qilish imkoniyati mavjud. Bu esa o'rta asrlar Movarounnahr hududida shakllangan ilmiy an'analarni chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Uning asarlarini o'rganish natijasida biz yurtimiz hududidan yetishib chiqqan, ammo bizgacha kam ma'lumot yetib kelgan ko'plab allomalar haqida yangi tarixiy dalillarga ega bo'lishimiz mumkin. Shu bilan birga, Abu Sa'd as-Sam'aniyning metodologik yondashuvi va ilmiy merosi nasabshunoslik, tarixshunoslik va hadis ilmi bo'yicha tadqiqot olib borishda zamonaviy ilm-fan uchun ham muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Shunday ekan, as-Sam'aniyning ilmiy merosini har tomonlama o'rganish nafaqat Movarounnahr allomalari haqida tasavvurimizni kengaytiradi, balki o'rta asr islom ilm-fanining rivojlanish jarayonlarini yanada chuqurroq anglashga imkon yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Захаби, Шамсуддин Абу Абдуллах. Сияр аълам ан-нубаля. Тахкик: Шуайб ал-Арнаут. Бейрут: Муассаса ар-Рисала, 1981.

2. Г. Б. Мухаммадиев. Среднеазиатские источники по генеалогии мусульманского общества. Москва: Наука, 1985.
3. Bosworth, C. E. The Islamic Dynasties: A Chronological and Genealogical Handbook. Edinburgh: Edinburgh University Press, 1967.
4. Маркази илмии Эрон. Олиймартабалар ва уламои Марвороуннахр дар таърихи Ислом. Техрон: Донишгоҳи Техрон, 2003.